

Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2025-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2025- yilning yanvar-aprel oylarida, Jizzax viloyatida jami 2 326,0 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2024- yilning mos davriga nisbatan 108,6 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyati	2 326,0	108,6
Jizzax shahar	700,6	113,1
Arnasoy	22,3	104,9
Baxmal	51,7	101,7
G'allaorol	69,1	101,7
Sharof Rashidov	237,3	102,7
Do'stlik	40,5	101,9
Zomin	197,1	127,8
Zarbdor	48,5	100,1
Mirzacho'l	24,0	103,2
Zafarobod	31,6	100,1
Paxtakor	87,2	105,0
Forish	35,5	100,8
Yangiobod	13,5	100,2

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)


[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2025-yilning yanvar-aprel oylarida Jizzax viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 81,1 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,6 % ni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 13,0 % ulushni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 121,2 % ni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 5,9 % ulushni va 2024-yilning mos davriga nisbatan 102,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2025-yilning yanvar-aprel oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 249,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 185,6 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 4,1 % ga ko'payib, 10,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 50,5 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2024-yilning mos davriga nisbatan 105,6 % ni tashkil etgan holda 1175,3 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 38,8 % ni yoki 901,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 100,7 % ni tashkil etdi.

Korxona turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



Hududlar kesimida korxona turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Jizzax viloyati	249,4	1 175,3	901,4	185,6	105,6	100,7
Jizzax shahar	107,2	484,3	109,0	536,6	91,8	153,2
Arnasoy	5,6	9,3	7,4	283,9	124,1	62,3
Baxmal	2,2	9,7	39,8	92,4	153,6	94,3
G'allaorol	3,5	30,9	34,7	45,8	138,3	91,3
Sharof Rashidov	2,3	184,0	51,0	-	98,7	114,7
Do'stlik	1,9	20,3	18,3	65,6	233,5	64,5
Zomin	38,9	97,2	61,0	92,3	146,5	133,6
Zarbdor	1,0	31,8	15,6	53,4	159,5	58,3
Mirzacho'l	3,0	7,7	13,3	59,8	188,3	93,9
Zafarobod	5,8	13,5	12,3	378,4	1047,9	42,3
Paxtakor	8,9	51,7	26,7	455,2	83,2	141,4
Forish	2,7	24,5	8,2	75,7	174,8	46,4
Yangiobod	1,6	6,8	5,1	115,0	540,2	46,7

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Jizzax shahrida (2024-yilning mos davriga nisbatan 536,6 %), Zafarobod tumanida (378,4 %) va Paxtakor tumanida (455,2 %) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Zafarobod tumani (2024-yilning mos davriga nisbatan 1 047,9 %), Yangiobod tumani (540,2 %) va Mirzacho'l tumanida (188,3 %) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;



d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;

e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;

f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
M.Musaqulova
72 221-51-02 (2521)

Manzil:
